

## INGLIZ VA O'ZBEK NASRIDA AYOL OBRAZINING BADIY TASVIRI

Farangiz Bahridin qizi UMAROVA

Tayanch doktoranti

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

Фарангиз Бахриддин кизи УМАРОВА

Докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

## A WOMAN'S IMAGE DESCRIPTION IN ENGLISH AND UZBEK PROSE

Farangiz Bakhriddin kizi UMAROVA

PhD student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan [umarova.farangiz18@mail.ru](mailto:umarova.farangiz18@mail.ru)

UDC (УЎК, УДК): 82:316.3: 821.512.133: 821.111

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Umarova F. B. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri.// O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022. — № 3 (44). — B.155-166.

<https://doi.org/10.36078/1659509920>

**Received:** March 25, 2022

**Accepted:** June 17, 2022

**Published:** June 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative

Commons Attribution International License (CC BY

4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

**Annotatsiya.** Hozirgi globallashuv jarayonida xalqimizning ma'naviy, siyosiy va diniy savodxonligini yuksaltirish zamonamizning eng muhim talabi bo'lib, bu borada ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada ingliz va o'zbek nasrida ayollar obrazining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Har bir xalq milliy qarashlaridan kelib chiqqan holda o'z adabiyotida ayol obrazini turlicha tasvirlaydi. Ozbek nasrida ayol timsoli ona, rafiqqa, uy bekasi sifatida tasvirlansa, ingliz adabiyotida esa bularga qo'shimcha sifatida ayol ishbilarmon tadbirkor, ishchi xodim kabi vazifalarni ham bajaradi. Ingliz adabiyotida ham ayol obrazi davrlar davomida tadrijiy o'zgarib borgan. XIX asr ingliz nasrida ayol obrazi erkak yozuvchilar tomonidan to'laqonli ideallashtirilgan holda yaratilgan. Shuningdek, maqolamizda ayol va jamiyat munosabatlari ham turli jihatdan o'rganiladi. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz biz ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o'rtasidagi munosabatdan, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oilada o'rni tahlil qilgan holda ayolning nasrda tasvirlanishiga baho berish mumkin. Har bir milliy adabiyotda ayol obraziga keladigan bo'lsak, u o'sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks etadi, idrok qilinadi. Binobarin, bir xil sharoitda harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda turlicha gavdalanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek nasri; ayol xarakteri; poetika; ayol va jamiyat; ingliz nasri; timsollar; obraz.

**Аннотация.** В статье рассматриваются образы женщин в английской и узбекской прозе. Образ женщины в литературе у каждого народа разный, в зависимости от его взглядов. Мы знаем, что в узбекской прозе женщина изображается как мать, жена, домохозяйка, а в англоязычной литературе, помимо этого, он включает в себя изображение женщины-предпринимателя, женщины-работницы. В английской литературе образ женщины тоже со временем менялся. В английской прозе XIX века образ женщины полностью идеализировался писателями-мужчинами.

В нашей статье отношения женщины и общества рассматриваются с разных сторон. Английская и узбекская литература всегда отличались глубиной идейного содержания, неустанным поиском смысла жизни, гуманным отношением к человеку, достоверностью образности. Английские и узбекские писатели постарались выразить в женских образах лучшие черты своего народа.

**Ключевые слова:** узбекская проза; женский персонаж; поэтика; женщина и общество; английская проза; эмблемы; образ.

**Abstract.** In the current process of globalization, raising the spiritual, political and religious literacy of our people remains the greatest demand of our time. In this regard, the issue of women is of particular importance. The article deals with the image of women in English and Uzbek prose. It is known that in Uzbek prose, the image of a woman is depicted as a mother, wife, housewife, while in English literature, in addition to these, it includes the role of a woman-entrepreneur, a woman-worker. In English literature, the image of women has changed over time. In XIX century English prose, the image of a woman was fully idealized by male writers. Moreover, the article examines the relationship between women and society from different angles. English and Uzbek literature has always been distinguished by the depth of its ideological content, its relentless pursuit of the meaning of life, its humane attitude to man, and the authenticity of its imagery. English and Uzbek writers have tried to express the best features of our people in women's images.

**Keywords:** Uzbek prose; female character; poetics; woman and society; English prose; emblems; image.

**Kirish.** Istiqlol davri — o‘zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzini oshirishni, hozirgi adabiy jarayon hodisalarini tanqidiy o‘rganish va o‘zlashtirishni, milliy-madaniy merosimizni tadqiq etishni, bugungi globallashuv jarayonida qadriyatlarni anglash zaruratining badiiy adabiyot mohiyatiga yanada chuqur kirib borishini, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojidadagi munosib o‘rmini asoslashni va keyingi davr adabiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazgan ijodkorlar merosini o‘rganishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, bugungi madaniy-ma‘rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo‘ymoqda. Xususan, adabiyot nazariyasi, poetika, nazm, xalqaro adabiy aloqalar va adabiy ta‘sir masalalari, mumtoz adabiyot tarixi, tarjimashunoslik, adabiy-estetik, badiiy-falsafiy tafakkur takomili singari sohalarda ayol obrazini talqin etish va ifodalash muammolari jahon va o‘zbek ilm-fani uchun tadqiq manbaiga aylangan.

Ma‘lumki, har qanday adabiyot o‘z g‘oya va personajlari bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, barcha zamonlarda ayol siyomosiga, ayol xarakterini ochib berishga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Bu esa ayolning jamiyat va insoniyat hayotidagi o‘rni, ayol timsolining dolzarbligidan dalolat beradi.

Ayol obrazi hozirda turli fanlar va san‘atning barcha turlarida (kino, teatr, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs, badiiy adabiyot, san‘atshunoslik, psixologiya) muhim muammo sifatida o‘rganilmoqda. Ammo bu boradagi ishlar bugungi kun ayolining ichki dunyosini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, onalik, bekalik kabi zalvorli majburiyatini, ularning go‘zallik, aql va donishmandlik timsoli sifatidagi qirralarini yetarli darajada ochib berishda ko‘zlangan maqsadga erishilmayapti.

O‘zbek nasrida ayol obrazi talqini mumtoz va zamonaviy adabiyotda ko‘p uchraydi. XX asrning dastlabki yillarida ayollar obrazlari mahorat bilan yoritilgan asarlar soni yanada oshdi va ular orasida aynan nasriy janrda

yozilgan asarlarni alohida ko'rsatish mumkin. Misol uchun, Kumushbibi, Zaynab ("O'tkan kunlar"), Zebi ("Kecha va kunduz"), Unsin ("Dahshat"), Gulnor ("Qutlug' qon"), Saida ("Sinchalak") obrazlari o'zbek nasrida yaratilgan ayol siymosi mohirlik bilan ochib berilgan asarlar sirasiga kiradi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa ayol obrazini yoritishga qaratilgan asarlar juda ko'p bo'lmasa-da, lekin deyarli har bir asarlarda ayol xarakterini, ayolning ichki kechinmalarini to'laqonli ochib beruvchi qahramonlar mavjud.

Adabiyot millat ko'zgidir. Har bir millat yoki mamlakat adabiyotini o'qib kuzatar ekanmiz, asardagi qahramonlar orqali o'sha millat madaniyatini ham ko'z oldimizga keltiramiz. Qolaversa, belgilangan mavzular va umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlarga ta'sir qiladi. Turli mualliflarning bu boradagi asarlari xalq og'zaki ijodi bilan birgalikda har bir xalqning keyingi avlodlari uchun adabiy meros sifatida xizmat qiladi (8, 44).

Dunyoning turli xalqlari madaniyatlari doimo bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, adabiyot orqali ham madaniy, ham ma'naviy jihatdan boyib boradi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, ayni paytda bir-birini to'ldiradigan milliy adabiyotlar jahon adabiyotini tashkil etadi. Shunga ko'ra, xalqlar adabiyoti bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, tobora ko'proq o'zaro aloqada bo'lish va o'zaro ta'sirni adabiy-tarixiy makonda o'rganish jahon adabiyotshunosligining har tomonlama rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi taniqli rus yozuvchisi N. I. Kondradning "Bashariyatning madaniy qadriyatlari doimo bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va busiz taraqqiyot mavjud emas" (8, 44) degan so'zlarini ko'pchilik yaxshi biladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, dunyodagi har bir millat va elatlarning madaniy, etnik tarixini bilish, madaniy-ma'naviy hayoti haqidagi tasavvurlar shakllanishida jahon adabiyotining o'rni beqiyosdir.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, hozirgi kungacha ingliz adabiyotining har bir adabiy davrida ayol obrazi tasvirlangan ko'plab asarlar yaratilgan. Xususan, Jeyn Ostinning "G'urur va andisha" asaridagi Elizabet Bennet xarakteri, Sharlotta Brontening "Jeyn Eyer" romanidagi Jeyn Eyer obrazi, Margaret Mitchellning "Shamollarda qolgan hislarim" asaridagi Skarlett O'Hara obrazi shular jumlasidandir. Bundan tashqari taniqli ingliz yozuvchilaridan bo'lgan Charliz Dikens, V. Skott, Emili Bronte kabi jahon adabiyotining buyuk darg'alari o'z asarlarida ayol obrazini tasvirlashga harakat qilganlar.

Ayol dunyo va insoniyatning boshlanishi hisoblanib, uning go'zalligi, jozibasi, boy ma'naviy dunyosi shoir va yozuvchilarni hamisha ilhomlantirgan. Go'zal ayol tasvirlari hali hamon kitobxonlar qalbini hayajonga solib kelmoqda. A. S. Pushkin adabiy aholisiga mansub ayollarning ilohiy go'zalliklari va Lev Tolstoyning maftunkor ayol obrazlari, I. S. Turgenev asarlaridagi qahramon ayol obrazlari, N. A. Nekrasovning oddiy dehqon ayollari obrazlari tasvirlangan asarlari bugungi kunda ham adabiy-estetik qiymatini yo'qotmagan. XX asr shoir va yozuvchilari ham o'z an'alariga amal qilib, hayratga sazovor ayol obrazlari tasvirlangan asarlar yaratganlar.

Jahon adabiy tanqidida XX asr oxirida ayollar nasri o'zbek badiiy adabiyotida adabiy-madaniy yo'nalish sifatida e'tirof etildi. Shu davrda o'zbek adabiyotida ayol estetikasi, ayol qo'lyozmasi, ayol fenomeni, ayol ijodkorligi, ayol donishmandiligi, ayol sabri va toqati kabilarga alohida e'tibor qaratildi. XIX asr adabiy-badiiy tasvirlari esa ayolning zamonaviy qiyofasiga yo'naltirildi.

Jahon adabiyotshunosligini kuzatar ekanmiz, adabiyot jamiyat qadriyatlarini aks ettirishi va ushbu qadriyatlarni amalga oshirishga oid g'oyalar ilgari surilganligini ko'ramiz. Ammo 1970-yillardagi feministik harakat Amerika madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, jamiyatda hali ham erkaklar hukmronlik qiladi va ayollar madaniy tenglikka erishishlari uchun ko'p harakat qilishlari kerak deb qaraladi. Shuning uchun adabiyotda ayollarning rolini qayta yaratish va qayta belgilash muhim vazifalardan biri sifatida qolmoqda. Shu bilan birga, yoshlar adabiyotida ayollar obrazining to'g'ri tasvirlanishi va unga tarix qanday ta'sir qilgani haqidagi yangicha qarashlar o'rtaga tashlanadi.

Adabiyotshunos olim M. Baxtin ta'kidlaganidek, har bir milliy adabiyotning ahamiyati va o'ziga xosligini anglash uchun "ularni chet el adabiyotlari bilan birgalikda solishtirilgan holda ko'rish" muhimdir (2, 167).

"Hamma narsa taqqoslashda ma'lum" nazariy tamoyili voqelikning deyarli ko'plab hodisalariga nisbatan qo'llaniladi. Bu mashhur naql adabiy tanqid, adabiy hodisalar, badiiy asarlar, adabiy va badiiy obrazlar, mualliflar tarjimai holi va boshqa adabiy oqimlarni qiyosiy usulda tahlil qilishning asosiy nazariyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi (9, 133).

Taqqoslash-bilishning usuli sifatida "bir xil hodisalar"ning ma'lum sifat va miqdoriy tavsifini berish zaruriyati tug'ilganda, ular rivojlanishining umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini inobatga olgan holda qo'llaniladi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, qiyosiy tahlil yordamida solishtirilgan materiallar orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin bo'ladi (3, 21). Qiyosiy adabiyotda ma'lum vaqt oralig'ida bevosita aloqada va umumiy tarixiy xususiyatga ega bo'lmagan adabiyotlardagi o'xshash va o'xshash bo'lmagan hodisalarni o'rganish alohida o'rin tutadi.

**Asosiy qism.** Ayollarning tafakkuri, o'ziga xos xususiyati, chidam va bardoshi kabi xislatlari badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Ularning yorqinligini, o'ziga xos shaxs ekanligini ifodalash bo'yicha nafaqat adabiyot namoyandalari, balki har bir san'at ahli turli nuqtai nazardan o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ayollar obrazini o'rganish va tasvirlash, avvalo, gender muammolarini o'rganishdan boshlanganligi ko'zga tashlanadi (4, 590). Ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o'rtasidagi munosabatning ifodalanishi, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oiladagi o'rnini tahlil qilgan holda ayol obrazining nasrda tasvirlanishi kuzatiladi. Har bir milliy adabiyotda ayol obrazini tasvirlashga keladigan bo'lsak, u o'sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks ettirilganligini ko'ramiz. Binobarin, bir xil sharoitda bir xil harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda turlicha gavdalanadi. Buning soddaroq izohi shundaki, har bir xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligi masalan, "Zumrad va Qimmat"i bo'lishi, hech biri ikkinchisini takrorlamasligidir. Ammo voqealarning cho'qqisida bo'lgan va asar markazida turgan ayol obrazi har qanday xalq adabiyotida turlicha tasvirlanganligini ham unutmazlik lozim (1).

Malumki, ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazini yaratishga juda ko'plab adabiyot vakillari qo'l urishgan. Bunda har bir yozuvchi o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir ayol obrazini o'z asarlarida gavdalantirishga harakat qilishgan. Jumladan, rus olimi Ye.Shore ayollar obrazini malikalar, jodugarlar, farishtalar, yoqimli, jozibali ayollar va mehribon ona xislatiga ega ayollar tarzida tasniflaydi (15, 99). Bunda, albatta, tasvirlash jarayonida nafaqat yozuvchining pozitsiyasi, balki millat, davlat, til va madaniyat ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol uchun Sharqda aynan o'zbek adabiyotida ayol — ona, ayol — rafiqa timsollari orqali

tasvirlangan asarlar ko'p uchraydi. Bu bizning jamiyatimizda ayolning asosiy vazifalari oila va oilada farzandlar parvarishi bilan bog'liqligi hoaltiga ishora qiladi. Lekin zamonaviy adabiyotlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ayolning vazifasi nafaqat oila, uy yumushlari bilan chegaralanib qolish, balki ayol jamiyatning bir bo'lagi sifatida ham tasvirlanish holatlari ham kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ayolning jamiyat bilan aloqasi kuchayib bormoqda va bu badiiy asarlarda o'z aksini topmoqda.

Hozirgi kungacha yaratilgan salmoqli asar mualliflaridan O'tkir Hoshimov, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Nazar Eshqobil, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi, Luqmon Bo'rixon kabi adiblar ayol obrazini chuqurroq ochib berishga harakat qilishayotganliklarini ko'ramiz. Ular orasida ayniqsa, O'tkir Hoshimov o'zining ko'plab asarlarida o'zbek ayoli qiyofasini, ayolning jamiyatdagi o'rnini, ayolning to'laqonli obrazini yoritib berishga intilganligini alohida qayd etishimiz mumkin. Adibning 1993-yilda yozilgan "Tushda kechgan umrlar" romanida ayolning sadoqati, ayolning sabri, ayolning asl ona, yor qiyofasi ochib berishga harakat qilingan hamda bu borada o'ziga xos yangicha yondoshuvlar ko'zga tashlanadi. Romandagi asosiy qahramonning erkak bo'lishi asardagi ayol obrazini ochib berishda muammo yuzaga keltirmagan, aksincha, romandagi erkak obrazidagi xislatlar va ayolning jamiyat, ijtimoiy turmush bilan munosabatlarini taqqoslash orqali ayol obrazini tasvirlashga yordam berganligi kuzatiladi. Asardagi syujetlardan ma'lumki, romandagi ayol qahramonlar Rustamning umr yo'ldoshi Shahnoza, Qurbonboy xola va uning qizi qiyofasida ayolning jamiyat bilan munosabatlari teran yoritib berilgan.

Asarlarida ona, ayol timsoliga tez-tez murojaat qilgan adiblarimizdan yana biri Isajon Sultonidir. Uning "Jahon so'z san'atida onalar vasfi, onalik sha'ni, ayol haq-huquqi va muammolariga bag'ishlanib bitilgan, qadr topgan, asarlar oz emas. Isajon Sulton qissasi asl onaizorlikning shakllanishi va shakllantirilishidek og'ir, zahmatli voqeiy-iloхий tadbir qonuniyatini islomiy tarzda, sobit milliy turmush tarzi va iymoniy ko'rsatmalar asosida poetik tafakkur bilan ijod etilgan o'ziga xos badiiy asar namunasidir. Isajon Sultonning "Onaizorim" asari mangu mavzuning yangi, eng ulug'vor tomoni haqidaligi, adabiy-estetik yondashuvning mavjudligi bilangina emas, balki boshqa qator fazilatlariga ko'ra ham bugungi o'zbek nasrining ko'rkam yangiligidir", deb yozadi adabiyotshunos olim Tohir Shermurodov.

Darhaqiqat Isajon Sulton ijodidagi yetakchi obrazlardan biri ona obrazidir (14, 64). U boshqa adiblardan farqli o'laroq ona obraziga prototip o'laroq o'z onasini tanlaydi. Bu obraz zamirida butun o'zbek onalari portretini yaratishga intiladi. "Onaizorim"dan so'ng adib o'zining bir qator hikoyalarida ayollar obraziga murojaat qiladi. Jumladan, "Shamolli kecha", "Tosh kelinchak" kabi bir qator hikoyalarida ayol obrazining turli ko'rinishlarini yaratishga harakat qiladi. Adibning "Men, onam va O'rta yer dengizi" hikoyasidagi ona u yaratgan obrazlar ichida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hikoya chuqur psixologizm va dramatismga boy bo'lib, unda hikoya qahramoni keksalik gashtini surib, hayot falsafasini farzandlariga, nevaralariga o'qitayotgan, mushohadakor, ammo hali ham qarashlari o'tkir ma'noli o'zbek onasi haqida so'z boradi.

Yozuvchi o'z hikoyasida: "Onam... o'zgarib qolibdi-ku?" deb o'ylayman bildirmasdan razm solib. Qaddini tik tutib, mag'rur yurishlari o'sha-o'sha, biroq avvalgi shiddati sezilmaydi. Sekinroq, avaylabroq qadam bosadi. Men oldin ko'rmagan, payqamagan ko'p xavotirlar bor bu qiyofada", deya ta'kidlash orqali onasidagi o'zgarishlarni psixologik



tavsiflash orqali ayol obrazini tasvirlashga harakat qiladi. Asarda muallif o'zbek onasi qiyofasining fazilatlarini, hech kimga o'xshamaydigan qirralari, dunyodagi voqea-hodisalarga, oilaga, el-ulusga, zurriyodiga, ota-onaga munosabatini badiiy ifoda etadi. Ammo biror o'rinda uning millatiga ochiq ishora qilinmaydi. Bu ishoralarning hammasi matn osti ma'nolariga yuklatiladi. "Odamlar suvni to'g'ridan-to'g'ri idish og'zidan ichishaveradi. Onam esa o'ylanib turib "Piyolasi yo'qmikin" deb atrofiga alanglaydi.

— Shundoq ichavering, qarang, hamma shunaqa qilyapti.

— E yo'q, qo'ysang-chi, uyat bo'ladi. Mana shu birgina "uyat" bo'ladi so'zining o'ziyoq o'zbek onasi timsolini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Hikoya davomini o'qir ekansiz, onaning "eganim ichimga tushmadi", "iymandim" kabi so'zlar uning xarakteridagi bag'rikenglik, mehr-u muhabbatni ifodalaydi. Asardagi kuchli lirizm uning yengil o'qilishiga ko'mak beradi. Asar muvaffaqiyatlaridan biri shundaki, yozuvchi-o'g'il tilidan hikoya qilinadi. Onaning quvonchi va qayg'ularidan anchadan buyon uzoqlashgan o'g'ilning u bilan safarga, safarki, xorij safariga chiqishi ular orasida biroz uzoqlashgan ona mehrining yanada mustahkamlanishiga asos bo'ladi. Yozuvchi o'g'ilning poytaxtda yashashi va qishloqda yashaydigan onaizorning shahar mo'jizalaridan hayratlanishi, bir qarashda oddiy hodisadek tuyuladi. Ammo ijodkor onaning har bir so'zi va harakatidan xushyor kitobxon chuqur falsafani anglaydi. Hikoya boshidan oxirigacha ona bolaning dialogi asosiga qurilgan. O'g'il va onaning ichki kechinmalari tasvirlanadi. "Ha, onam o'zgaribdi. Menga boladay itoat qilishini-chi? Boshqa yo'lakka qarab ketaversa, "U yoqqa bormang" desam, "Xo'p" deb ortiga qaytishlari, qayga borsam ergashishlari, xuddi bolamday itoatkor bo'lsa-da, bu ham yetmaganday, chiroyli manzaralar-u xushta'm yeguliklarni ilinishlari bir zavqimni keltirsa, bir xavotirimni oshiradi. Har diydor onida yonida bo'lib, shularni sezmaganimni qarang". Muallif o'zining kechinmalari orqali onasi haqida gapirar ekan, umr g'animatligi, shu g'animat dunyoda onalarimizni e'zozlashimiz lozimligi uqtiriladi (13, 31–32).

Shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandalaridan biri bo'lgan shoir, yozuvchi Iqbol Mirzoning 2016-yilda nashrdan chiqqan "Bonu" romanini ham ayol obrazi puxtalik bilan tasvirlangan asarlar safiga qo'shishimiz joiz.

Adabiy manbalar tahlilidan ayon bo'ladiki, ingliz adabiyotida ham ayol obrazi davrlar davomida o'zgarib borgan. XIX asr ingliz nasrida ayol obrazi erkak yozuvchilar tomonidan to'laqonli ideallashtirilgan holda yaratilganligi ko'zga tashlanadi. U. Skotning "Ayvengo" romanida ingliz ayoli obrazi Rovena yahudiy go'zali Revekadan farqli o'laroq, passivligi, yumshoqligi, qarshilik ko'rsatishga qodir emasligining ideallashtirilgan timsolini ko'rishimiz mumkin (6, 292). Bu borada, faqatgina sanoqli yozuvchilar garchi syujet jihatdan vaziyatlar juda stereotipik tarzda hal qilingan bo'lsa-da, ayol obrazini stereotiplashdan chetga chiqishga muvaffaq bo'lishadi. Tekkereyning "Vanity Fair" romanidagi Rebekka Sharp va Emiliya Sedli, U. Kollinzing "The Women in White" asaridagi Merion Golkomb ayol qahramonlar stereotiplashdan chetga chiqilgan asarlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar orqali o'tmish haqida ma'lumot ham olish mumkin. Chunki har bir asarda qaysidir voqea-hodisalar reallikka asoslangan holda namoyon bo'ladi va o'sha davr hayotidan biroz bo'lsa ham darak berib turadi. U. Shekspirning asarlarida ham ayol obrazlari mavjud bo'lib, unda o'z davrining mukammal ayol obrazi Yeven Ofeliya obrazi orqali

gavdalaniriladi. O'sha davrda ayollar o'zining ichki dunyosiga ega bo'lgan inson sifatida qaralmagan edi (11, 647).

Yana bir ingliz adabiyotida mavjud bo'lgan ingliz ayol obrazini qoyilmaqom tarzda ochib bergan asar Jeyn Ostin tomonidan yozilgan "G'urur va andisha" nomli romandir. Bu asardagi ayol obrazini ochib berish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Misol uchun, Tannerning fikricha, Ostin o'z asarining qahramoni Elizabet Bennetga ulkan joziba bergan va mukammallashtirishga harakat qilgan. Elizabet nafaqat go'zal ko'rinish va jonli ruhga ega bo'lishidan tashqari oqilona fikr yuritishi bilan alohida etirof etib o'tiladi. Shuning uchun ham Bennetida boshqa opa-singillari kabi ahmoqona fikr yuritilishi kuzatilmagan. Biroq Waldron bu fikrlarga qarshi borib, Elizabet obrazini mukammal ayol sifatida tasvirlanmaganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Elizabet avliyo emas va uning zaifligi asarning bazi joylarida yaqqol ko'rsatilgan. Masalan, Elizabet Pemberlining bekasi bo'lish nimani anglatishini anglaganida, bu uning uchun ham, uning oilasi uchun ham yaxshi bo'lishini bilgan va bundan foydalanishga harakat qilgan bo'lardi. U ham boshqa insonlar kabi pul haqida qayg'uradigan inson sifatida tasvirlangan degan fikrlar ham mavjud (17, 94).

Arnold Jeyn Ostin asarlarida ayol xarakteri ijobiy tarzda tasvirlanmagan degan qarashlarni ilgari suradi va asardagi barcha ayollarning ma'lum darajadagi ahmoqona harakatlarini ko'rsatib beradi. Shunday qilib, Arnoldning taxmini bo'yicha Jeyn Ostinning o'zi ham o'quvchilar uchun mutlaqo yangi ayol qiyofasini yaratmoqchi bo'lgan bo'lsa-da, ayollar haqidagi stereotiplardan qocholmagan va bu esa ayol obrazini yaratishga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagan. Elizabetdan tashqari, asarda boshqa ayol qahramonlarning ham obrazini gavdalanirgan, bular Bennet Xonim va Sharlotta Lukaslardir. Asarda Bennet xonim asosan salbiy qahramon sifatida jonlantiriladi. Arnoldning takidlashicha, Bennet xonim har doim mayda-chuyda narsalardan shikoyat qiladigan, zerikarli, tor fikrli ayol sifatida tasvirlangan va uning hayotidagi asosiy maqsadi qizlarini turmushga berishdan iborat qilib ko'rsatilgan (16, 34). Tanner esa Bennet xonimning dunyoqarashi cheklangan va mulohaza qilishga qodir emasligini ta'kidlaydi. Waldronning fikricha esa Bennet xonim boshqalarning histuyg'ulari haqida o'ylamasdan gapiradigan va fikrlash doirasi juda tor deb aytib o'tadi. Asardagi yana bir ayol qahramon Sharlotta haqida ham tanqidchilarning turlicha fikrlari mavjud (18, 404-419).

Weinsheimer Sharlottaning bema'niligini tanqid qiladi, chunki u nikohdagi haqiqiy baxtdan ko'ra uy, mol-mulkka ega bo'lgan turmushni yoqtirishini e'tirof etib o'tadi. Ammo Nyutonning takidlashicha, Sharlotta ham o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy kuchi, bosimi qurboni bo'lgan. Bu esa o'sha davr qo'ygan talabidan kelib chiqqan holda harakatlanishidir, deb aytib o'tadi. Tanner ham ushbu fikrga qo'shilib, Sharlottani ayblamaslik joiz ekanini u hayotda omon qolish, yashab ketish uchun shu yo'lni tanlaganini ta'kidlaydi.

K. P. Karagoda "Yangi zamon san'atida ayollar obrazining ijtimoiy-madaniy sharti" mavzusidagi dissertatsiyasida yangi zamon adabiyoti va san'atida ayollarning o'rnini ikki tipga bo'lib o'rganadi: yangi va an'anaviy ayol obrazi. Uning fikricha: "An'anaviy ayol o'zini nikoh orqali namoyon qiladi. Viktorian davri va o'sha davr rassomlari jamiyat tomonidan o'rnatilgan, oilani buzish kabi tartiblardan yuz o'g'irgan ayollarga o'lim jazosi belgilanishini ko'rsatib o'tadilar" (5, 87).

**Natija va mulohazalar.** Manbalardan ma'lum bo'lishicha, har bir mamlakatda ayol obrazini tasvirlash usuli turlicha qiyofalar, turlicha

dunyoqarashlar bilan boyitilgan. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, o'zbek xalqining jahon xalqlari madaniy merosining munosib durdonalardan biri bo'lgan "Alpomish" dostonidagi Barchin obrazi vafo, fidoyilik, mardlik kabi yuksak fazilatlarini o'zida mujassam etgan. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi obrazini oladigan bo'lsak, ayol xilqatining naqadar soddaligi, go'zalligi, odobi, betakrorligini adib mohirlik bilan namoyon qilib bera olgan (12, 7).

O'zbek qissachiligida asar g'oyasi, qahramonlar ruhiyatini ochish muhim vositalardan biri bo'lgan. Unda nafaqat zamon va makon tasviri uyg'unlashadi, balki qahramon ruhiyatiga mos, ayol ruhiyatiga uyg'un histuyg'ular mazmuni yoritiladi. Tahlilga tortilgan N. Eshonqulning "Momo qo'shiq" asarida bir yarim-ikki sahifalik ichki monologlar uchraydi. Eng muhimi, muallif ayol ruhiyatini kashf etishda yoki boshqa qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirishda peyzaj tasviridan unumli foydalanadi. Qolaversa, muallif ko'p o'rinlarda kitobxonga qarata hissiy-ta'sirchan ichki monolog o'qishi asar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, N.Eshonqul muazzam ijro etgan qo'shiqning sirli-sehrli kuchini, na'vosini tabiatning erka fasli bahorga qiyoslaydi. Tashbehlarida muallif peyzaj unsurlaridan unumli foydalangan. Peyzaj tasviri bilan Shamsi Salohning romantik kayfiyati juda uyg'un holda aks ettiriladi. Yozuvchining peyzajni voqealar rivojini to'xtatib qo'yguncha mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) kuzatiladi. Asarda peyzaj — bajaruvchi birlamchi funksiyali voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq peyzajning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatini namoyon etadi. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Nazar Eshonqulning "Momo qo'shiq" qissasida dinamik peyzaj tasviri yetakchilik qiladi. Asarda nafaqat tabiat manzaralari, joy tasvirlari bo'lishidan tashqari, qahramon ruhiyatini yanada yorqin ochib beruvchi muhim vosita, qahramonning tashqi hamda ichki portretini tabiat lavhalari, hayvonot, tog'-tosh, tiniq va zilol suv, osmon jismlariga o'xshatish orqali ham tasvir yanada originallikka erishiladi. Yozuvchi o'z g'oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir etishni, undagi go'zallik tuyg'ularini tarbiyalash ham ko'zda tutiladi. Peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg'un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta'sir o'tkazuvchi tarbiyaviy, ma'rifiy va estetik vazifasini o'tash ta'kidlanadi (7, 97).

O'zbek nasrida kampirlar obrazi orqali ham ayol obrazini to'laqonli ochib berishga harakat qilinganligi kuzatiladi. Bunday yondoshuv Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", Shoyim Bo'tayevning "Kayvonining mangu makoni", "Yulduzlarga eltar yo'l", Sobir O'narning "Chambilbelning oydalasi", Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqcha qotillik" qissalarida uchraydi. Kampirlar obrazi, o'zbekning kayvoni, g'amgin, mushfiq, mehribon ayol obrazi Sh. Bo'tayev, N. Eshonqul, S. O'nar, B. Qobul qissalari misolida tahlil qilingan. Shoyim Bo'tayevning kampirlar obrazini yaratishdagi tajribalari "Sho'rodan qolgan odamlar", "Kunbotardagi bog", "Kayvonining mangu makoni", "Yulduzlarga eltar yo'l" qissalarida ko'zga tashlanadi.

Adibning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi o'tgan asr oxirida yozilgan bo'lib, unda qamoqxona nazoratchisi, o'g'irlikda gumon qilingan uning o'g'li Toshmurod, nazoratchining kampiri kabilar asosiy qahramonlar



sifatida xarakterlanadi. Asarda Shoyim Bo'tayev badiiy uslubiga xos kinoyaviy nigoh, istehzo va kesatiqlar, satirik tasvirlardan nihoyatda mahorat bilan foydalangan. Asarda qamoqxona nazoratchisining boshiga tushgan tashvishlar orqali jamiyatdagi va oiladagi jaholat tanqid ostiga olinadi. Qissada tasvirlangan kampir nihoyatda hokisor, mushfiq, kamsuqum, eriga itoatkor bir ayol sifatida gavdalanadi. Qissada qalamga olingan muammo nafaqat bir oila fojiasi sifatida, balki davr fojiasi sifatida shafqatsiz realistik uslubda ochib beriladi. Shoyim Bo'tayevning kampir yoki ona obrazini yartishdagi ijodiy tajribalari adibning so'nggi qissalaridan biri "Yulduzlarga eltar yo'l" da ham aks etgan. Qissa markazida umrida ro'shnolik ko'rmay o'tgan bir oila Hotam (ota), Buvish (ona), Tursunmurod (o'g'il)ning fojiaiy qismati yotadi. Tursunmurod ota-onasining Xudodan tilab olgan yettinchi farzandi edi. Er-xotin farzand dog'ida kuyib-ado bo'lgan, ularning olti bolasi tug'ilib, o'n kun yashab-yashamay olamdan ko'z yumgan bo'lishiga qaramasdan, sabr va bardosh qilib yashab kelayotgani tasvirlangan. Yozuvchining "Kayvonining mangu makoni" ertak-qissasida ham kampir obrazi uchraydi. Bu qissadagi kampir va kayvoni erkak obrazi kinoyaviy nigoh bilan tasvirlanadi. Adib "Kayvoni" nomiga teskari ma'no yuklaydi. Ya'ni bu elning oldi bo'lgan kayvoni og'zi tinmay qarg'aydigan, kuchugini qarg'ab, uyidan quvib solgan, so'ngra ko'ziga Oqtosh (kuchugining oti) ko'rinib, uyiga qaytarib kelishga jahd qilgan ajabtovur fe'lli, fikrlashi, dunyoqarashi nihoyatda haminqadar bir kishi hisoblanadi. "Kayvonining mangu makoni"da ham folklor stilizatsiyasi, afsonalarga ramziy badiiy-shartli ma'nolar yuklash kuzatiladi (10, 45).

Qissada kayvoni obrazidan tashqari Maston kampir obrazi ham tasvirlanadi. Maston kampir — o'lgudek xasis, ziqna bir ayol. Adib Maston buvi qiyofasida birovgga xayri tegmaydigan ayollar timsolini mujassamlashtiradi.

Hozirgi o'zbek qissachiligida kayvoni kampir obrazini mahorat bilan yaratgan yozuvchilardan yana biri Bahodir Qobuldir. Uning shu kungacha kitobxonlar hukmiga havola etilgan "Enashamol", "Enayo'l", "Otachiroq", "Otahayot" qissalari mazmunida yozuvchini bolaligidan tarbiyalab-o'stirgan, hayotiy tajribasi katta mehribon buvisi obrazi markaziy o'rinda turadi. Bahodir Qobul nasrida keyingi paytda jahon adabiyotida tobora barcha janrlar tabiatiga singib, janrlar sinkretizmini vujudga keltirayotgan esse janriga xos qator badiiy jihatlar kuzatiladi. Adib asarlari uslubida esse janri tabiatiga xos behad erkinlik, samimiylik, muallifning shaxsiy fikrlar oqimi yetakchilik qiladi. Esse janrining erkin va samimiy uslubi Bahodir Qobil asarlari tabiatiga o'zgachalik, originallik baxsh etadi. Shuningdek, yozuvchining qissalari va hikoyalari bir-birining davomidek, mantiqiylik kasb etgan. Bahodir Qobulning qissa va hikoyalari yaratilgan ena siy mosi muhim o'rin egallaydi. Kayvoni ena obrazi yozuvchining "Ena shamol" qissasidan boshlanib, eng so'nggi hikoyasi "Bog'dagul"da ham davom etadi. Bahodir Qobul "Ena shamol" va boshqa qissa-hikoyalari shu qadar yuksak qalbli ena obrazini yaratadiki, bu obraz qiyofasida sokinlik, donishmandlik, sabr-u qanoat, shukronalik xislatlarining barcha-barchasini ko'ramiz. Ijodkorning badiiy topilmalari, aforizmlardan foydalanish uslubi, badiiy tili nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik fanlari uchun ham tadqiqot manbai bo'la oladi. Enaning "Non uchun chizilgan rasmda istara, yozilgan yoziqda nafas bo'lmaydi", "Yoziq chiziqni ichida ichi borlarga chiqargan", "Sog'inch va mehrdagina ta'ma bo'lmas" kabi o'git va nasihatlarida milliy qadriyatlarimizga xos ezguliklar, hayot haqiqati katta tarbiya mezoni sifatida talqin qilingan. O'zbek oilalarida bola tarbiyasi

uchun kayvoni bobo va buvilarning pand-nasihatlari va amallari ibrat bo‘lib kelganligi tasvirlanadi (5, 66).

Hozirgi globallashuv jarayonida xalqimizning ma'naviy, siyosiy va diniy savodxonligini yuksaltirish zamonamizning eng katta talabi bo‘lib qolmoqda. Bu borada ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. “Bugungi kunda ayollar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida, erkak va ayol o‘rtasidagi ijtimoiy va huquqiy tenglik masalasi dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ayollarning maqomi bilan bog‘liq jiddiy muammolar vujudga kelmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va 5 ta muhim tashabbusda ham xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyatdagi rolini kuchaytirish, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasidagi ishlar amalga oshirilmogda. Barcha harakatlar xotin-qizlarni jamiyat bilan aloqasini kuchaytirishga qaratilmogda. Bundan tashqari ayolning jamiyat va oiladagi o‘rnini har bir millat adabiyotida yoritilgan ayol qahramon obrazidan ham bilib olsak bo‘ladi, o‘xshash va farqli jihatlar bo‘yicha xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu orqali jamiyatda ayolning o‘rni va uning o‘zaro munosabati ochiq-oydin belgilanib boradi. Ikki millat adabiyotini kuzatish chog‘ida amin bo‘ldikki, ayollar obrazlari davr evolyutsiyasiga duch kelgan bo‘lib, har bir zamon va makonda turlicha tasvirlangan ayol qahramonlar mavjud.

**Xulosa.** Ingliz va o‘zbek adabiyoti hamisha o‘zining g‘oyaviy mazmunining teranligi, hayot mazmun-mohiyati masalalarini hal etishga tinimsiz intilishi, insonparvarlik munosabatlari, tasvirlashning haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Ingliz va o‘zbek yozuvchilari ayol obrazlarida eng yaxshi xususiyatlarni ifodalashga intilishgan. O‘zining sodiq va mehribon qalbi, betakror ma'naviy go‘zalligi bilan ajralib turadigan ayol obrazlari jahon badiiy adabiyotida turlicha tasvirlangan. Ayol ko‘p qirrali xilqat bo‘lib vaqt o‘tishi bilan uning vazifalari kengayib, dunyoga qarashi o‘zgargan bo‘lishidan qat’iy nazar uning nozikligi, oilaparvarligi, mehribon ona kabi xislatlari o‘zgarimasdan qolaveradi.

Mustaqillik davri o‘zbek qissanavislari badiiy, adabiy ijodiy tajribalarini to‘plashda milliy qissachilikdan tashqari, dunyo qissachiligi tajribalarini o‘zlashtirdi va milliy islomiy badiiy talqinlarga yuz burganini ko‘rsatdi.

Adabiyotning bosh qahramoni, bosh mavzusi ayoldir. To‘g‘ri, adabiyotlarda ota-onaga muhabbat, tabiat go‘zalligi, insof, farzand muhabbati, dushmanga nafrat kabi abadiy mavzular mavjud bo‘lib, ularning har biri minglab xalqlarning adabiyotida tarannum etiladi. Ayollar mavzusini o‘rganish ham adabiyotshunoslikda tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M. (2021). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. "ONLINE - CONFERENCES PLATFORM, 62–68. — URL: <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/589>
2. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М., 1975. — 504 с.
3. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fil. fan. nomz...diss. — Toshkent, 2020. — 167 b.
4. Ika M, Aditya P. Representation of Women Image in Anthology of Poetry “Poetry of Rahim” by the Women Poet of five Countries // *The 1st*

*International Seminar on Language, Literature and Education, KnE Social Sciences, pages 588–594.*

DOI 10.18502/kss.v3i9.2722

5. Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени: дис. ... канд. искусствоведения. — Краснодар, 2019. — 155 с.

6. Хабибуллина Л.Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века // Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 11-1, 2009. — С. 292–299.

7. Kodirova G. The comparison of Women image in Russian and English Literature. 2021// International Journal on Orange Technologies, Volume 03, Issue 06, June 2021, p. 97–99. URL: — [www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT](http://www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT) e-ISSN: 2615-8140|p-ISSN: 2615-7071

8. Конрад Н.И. К вопросу о литературных связях // Запад и Восток. — М., 1966. — С. 43–52.

9. Маданова, М. Актуальные вопросы литературной компаративистики. — Алматы, 1999. — 268 с.

10. Қобил Б. Энайўл. — Тошкент: Машхур пресс, 2018. — 352 б.

11. Ravshanovna H.N. Daniel Defoe's "Robinson Crusoe" as the prototype of the English novel// Academia: An international multidisciplinary research journal. — 2020. — Vol.10. — No.12. — P. 644-647.

12. Raximov M. The image of women in the work of Uzbek writers. — Euroasian Research Bulletin. — Volume 3, 2021. — P. 1-7.

13. Sattorova G.Y. Bugungi hikoyalarda ayol obrazi talqini // Scientific work (international scientific journal). — 2020. — No. 08/57. — P. 29–32 DOI: 10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32

14. Shermurotov T. Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. — 144 b.

15. Шоре Э. Феминистское литературоведение// Литературоведение на пороге XXI века. — М., 1998. — С. 96–102.

16. Tanner, T. Jane Austen, Houndmills, Basingstokr, Hampshire and London: Macmillan Press Ltd., 1986. — 291 p.

17. Waldron M. Jane Austen and the fiction of her time. Cambridge: Cambridge University Press 1999. — 320 p.

18. Weinsheimer J. Chance and the Hierarchy of Marriages in Pride and Prejudice// ELH (1972): Vol.39, No.3, 1972. — P. 404–419.

<https://www.semanticscholar.org/paper/Chance-and-the-Hierarchy-of-Marriages-in-Pride-and-Weinsheimer/fa70ff52b233eaaac0184d95c10bb333cc2a98f>

DOI: 10.2307/2872192

#### References

1. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M. (2021). *Online — conferences platform*, pp. 62–68, available at: <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/589>

2. Baxtin M., *Voprosi literature i estetiki* (Issue of Literature and Aesthetics), Moscow, 1975, 504 p.

3. Eshmatova Y.B. *Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini* (Independence is an Artistic Interpretation of the Female Psyche in Uzbek Short Stories), candidate's thesis, Tashkent, 2020, 167 p.

4. Ika M., Aditya P., *The 1st International Seminar on Language, Literature and Education, KnE Social Sciences, pages 588–594.* DOI 10.18502/kss.v3i9.2722

5. Karagoda A.P., *Sotsiokul'turnaya obuslovennost' zhenskikh obrazov v isskustvenovogo vremeni* (Sociocultural Conditionality of Female Images in the Art of Modern Times), candidate's thesis, Krasnodar, 2019, 155 p.
6. Khabibullina L.F., *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta*, 11-1, 2009, pp. 292–299.
7. Kodirova G., *International Journal on Orange Technologies*, Volume 03, Issue 06, June 2021, pp. 97–99, available at: // [www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT](http://www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT)
8. Konrad N. I., *Zapad i Vostok* (West and East. Articles), Moscow, Nauka, 1972, pp. 43–52.
9. Madanova, M.H. *Aktual'nye voprosy literaturnoi komparativistiki* (Actual issues of literary comparative studies), Almaty, 1999, 268 p.
10. Qobil B., *Enayo'l* (Enaiul), Tashkent: Mashhur press, 2018, 352 p.
11. Ravshanovna H.N., *Academia: An international multidisciplinary research journal*, 2020, vol. 10, No.12, pp. 644–647.
12. Raximov M., *Eurasian Research Bulletin*, Volume 3, 2021, pp. 1-7.
13. Sattorova G.Y., *Scientific work (international scientific journal)*, 2020, No. 08/57, pp. 29–32 DOI: 10.36719/AEM/2007-2020/57/29-32
14. Shermurotov T., *Mangu onaizor talqini. Yetuklik jozibasi* (Mangu Onaizor Interpretation. The Charm of Maturity), Tashkent: Turonzaminziyo, 2017, 144 p.
15. Shore E., *Literaturovedenie na poroge 21 veka* (Literary Criticism on the Threshold of the 21st Century), Moscow, 1998, pp. 96-102.
16. Tanner, T. *Jane Austen*, Houndmills, Basingstok, Hampshire and London: Macmillan Press Ltd., 1986, 291 p.
17. Waldron M., *Jane Austen and the fiction of her time*. Cambridge: Cambridge University Press 1999.-320 p.
18. Weinsheimer J., *ELH*, Vol.39, 1972, No.3, pp. 404-419.